

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**NAZAROVA AFZUNA RAHIMOVNA**

**HOZIRGI ZAMON DARIY ADABIYOTIDA “YANGI SHE’R”**  
**GENEZISI VA SHAKLLANISH JARAYONLARI**  
**(Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she’riyati misolida)**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UO‘K: 821.222:82-1  
КБК: 83.3:84-5 (5 Dar)  
N-32

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Nazarova Afzuna Rahimovna**

Hozirgi zamon dariy adabiyotida “yangi she’r” genezisi va shakllanish  
jarayonlari (Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she’riyati misolida) ..... 3

**Nazarova Afzuna Rahimovna**

The genesis and formation processes of “new poetry” in contemporary  
Dari literature (using the poetry of Bareq Shafie and Partaw Naderi as an  
example) ..... 25

**Назарова Афзуна Рахимовна**

Процессы становления и формирования «новой поэзии» в  
современной литературе дари (на примере поэзии Барика Шафеи и  
Партава Надири)..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works  
Список опубликованных работ ..... 51

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**NAZAROVA AFZUNA RAHIMOVNA**

**HOZIRGI ZAMON DARIY ADABIYOTIDA “YANGI SHE’R”**  
**GENEZISI VA SHAKLLANISH JARAYONLARI**  
**(Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she’riyati misolida)**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2507 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Mannonov Abdurahim Mutalovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Xodjayeva Ra’no Umarovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Shoaliyeva Nargiza Kaxramanovna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institute**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21. faks: (99871) 233-52-24; e-mail: [info@tsuos.uz](mailto:info@tsuos.uz).)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Q.Sh. Omonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi  
v.v.b., filol.f.d., professor

**N.R.Ismatullayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD), dotsent

**B.To‘xliyev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida sharq she'riyatidagi zamonaviy oqimlar, janrlar va badiiyat masalalarini o'rganish dolzarb mavzu hisoblanadi. Adabiyotshunoslik sohasida an'anaviy shakl, mazmun va badiiy tasvir vositalari, zamonaviylik masalasi, adabiy me'yorlarni tan olish muayyan tarixiy davr va joylar kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki she'rda an'anaviylik va zamonaviylikning mohiyatini ochib berishda, badiiy asarni o'rganish va unga baho berishda umumqabul qilingan adabiy me'yorlarga amal qilinadi.

Dunyo adabiyotshunosligida an'anaviylik asrdan asrga, nasldan naslga o'tib kelayotgan hodisadir. Adabiy an'ana paydo bo'lganidan boshlab yangilik hisoblanib, vaqt o'tishi bilan takrorlanishi va tez-tez ishlatilishi, shuningdek, madaniy zarurat, ijtimoiy hodisalar ortidan ehtiyojga aylanadi, ya'ni, san'at va adabiyot sohasida hech bir an'ana avvaldan mavjud bo'lmagan. Aksincha, o'tmishda har qanday an'ana o'ziga xos yangilik hisoblangan va hech qanday yangilik abadiy qolmaydi. Qandaydir modernistik qarashlarni qabul qilish dastlab an'anaviy elementlarning me'yor va talablarini tushunishni talab qiladi. Bu esa an'anaga tanqidiy nazar bilan qarash va uning unsurlarini tan olish orqali ta'minlanadi. Demak, san'at va adabiyotda evolyutsiya an'analar va yangiliklar to'qnashuvining mahsuli hisoblanadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida qo'shni davlatlar bilan xususan, Afg'oniston bilan madaniy aloqalar jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Bu aloqalar, ayniqsa, adabiyot va she'riyat sohasida o'zaro tajriba almashish va tushunishni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Afg'oniston dariyazabon adabiyotida XX asrning birinchi choragidan e'tiboran yuzaga kelgan yangi she'riyat bilan bog'liq an'anaviylik va zamonaviylik masalalari, mumtoz qoliplardagi shakl va uslublarning "yangi she'r" qolip, vazn va badiiy uslublariga o'z o'rnini bo'shatib berish jarayonlari, shu bilan bir qatorda, "yangi she'r"ning mamlakat adabiyotida asosiy, hukmron oqim sifatida bo'y ko'rsatishini o'rganish, uning yetakchi namoyandalari ijodiga zamonaviy she'rshunoslik, adabiyotshunoslik, badiiy-uslubiy talablar nuqtai nazaridan qarash va xulosalar chiqarish hozirgi adabiyotshunoslik tadqiqotlarining dolzarb vazifalari sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-sonli "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, hamda, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, shuningdek, ushbu tadqiqot ishiga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu ilmiy tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni

ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Afg'on adabiyotshunosligiga "she'r-e nav" Eron adabiyoti orqali kirib kelgan va bu uslub, adabiy oqim sharqshunos olimlarning e'tiborini tortib kelgan. Bu borada fors tilida ko'plab ilmiy-nazariy tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularda "she'r-e nav" turli aspektlarda, masalan, tarixi, mazmuni, badiiy tasvir vositalarining ifodalanishi, she'riyatga ijtimoiy-siyosiy ta'sirlar kabi mavzular doirasida ko'rib chiqilgan. Xususan, Eronda Ahvon Solis, Abdulali Dastg'ayb, Parviz Notel Xonlariy, Abdulhusayn Zarrinkub, Ismoyil Nuria'lo, Hamid Zarrinkub, Shams Langrudiy, Muhammad Huquqiy, Mansur Rustagor Fasoyi, Muhammad Rizo Shafeiy Kadkaniy, Kovus Hasanliy kabi olimlarning asarlari<sup>1</sup>da Nimo Yushij va izdoshlari asos solgan "yangi she'r"ning paydo bo'lishi, taraqqiyoti xususiyatlari va shoirlarning ijod namunalari<sup>2</sup>dagidagi o'rni tahlil va tadqiq qilingan.

R. Aliyev, V. Klyashtorina, J. Badiiy, M. Nikolaevskaya kabi sobiq ittifoq olimlari<sup>2</sup>, Rossiyada ilmiy faoliyat olib borgan yangi davr olimlaridan M. Kyazimov, N. Djum'amurodiy, N. Xodjayorov<sup>3</sup>, o'zbek olimlaridan Sh. Shomuhamedov, N. Shoaliyeva, S. Yuldasheva, S. Sotiboldiyevalar<sup>4</sup> tomonidan zamonaviy fors she'riyatida "yangi she'r"ning vujudga kelishi va takomilidagi o'ziga xosliklari, shuningdek, boshqa mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Zamonaviy dariyazabon adabiyotda Afg'onistonning o'zida ham "she'r-e nav" bilan bog'liq izlanishlar mavjud bo'lib. Uning tarixi, taraqqiyot bosqichlari, "yangi she'r"da ijod qilgan shoirlar xususida ilk bora Muhammad Haydar Jo'balning asari<sup>5</sup>da ma'lumot berilgan. Keyinchalik Muhammad Usmon Sidqiy, Asadullo Habib, Shujoyiddin Xurosoniy, Abdulqayum Qavim, Muhammad Is'hoq Foyiz, Partav Nodiriy kabi olimlar ham o'z asarlari<sup>6</sup>da bu mavzuga qo'l urganlar. Afg'oniston

<sup>1</sup> اخوان ثالث. نوعی وزن در شعر امروز فارسی // پیام نوین، ش. ۷. - تهران، ماهانه، ۱۳۴۲. - ص. ۴۶-۶۲؛ دستغیب عبد العلی. تحلیلی از شعر نو فارسی. - تهران، ۱۳۴۵. - ۱۳۰ ص؛ خانلری پرویز ناطل. شعر و هنر. - تهران، ۱۳۴۵. - ۳۷۲ ص؛ زرینکوب عبد الحسین. شعر بی نقاب، شعر بی دروغ. - تهران، ۱۹۶۷ م. - ۲۹۱ ص؛ نوری علا اسماعیل. صور اسباب در شعر امروز ایران. - تهران، ۱۳۴۸. - ۵۸۱ ص؛ زرینکوب حمید. چشم انداز شعر نو فارسی. - تهران، ۱۳۵۸. - ۲۷۸ ص؛ خانلری پرویز ناطل. وزن شعر فارسی. - تهران، ۱۳۶۶. - ۳۰۳ ص؛ نوری علا اسماعیل. تئوریه شعر. از موج نو تا شعر عشق. - لندن، ۱۳۷۳. - ۳۱۵ ص؛ لنگرودی شمس. تاریخ تحلیلی شعر نو. چهار جلد. - تهران، ۱۳۷۷؛ محمد حقوقی. مروری بر تاریخ ادب و ادبیات امروز ایران. جلد ۲. - تهران، ۱۳۷۷. - ۶۲۰ ص؛ فسلی منصور رستگار. انواع شعر فارسی. - تهران، ۱۳۸۰. - ۶۹۶ ص؛ محمدرضا شفیعی کدکنی. با چراغ و آینه. - تهران، ۱۳۹۲. - ۷۶۱ ص؛ حسنی کاووس. گونه های نوآوری در شعر معاصر ایران. - تهران، ۱۳۹۸. - ۴۹۶ ص.

<sup>2</sup> Кляшторина В.Б. Современная персидская поэзия. - Москва: Наука, 1962. - 148 с.; Алиев Р.М. О новаторстве в современной персидской поэзии (ритмические основы стиха) // Доклады делегации СССР на XXVI Международном конгрессе востоковедов. - Москва, 1963. - 3-15 с.; Баде Ж. Нима Юшиджа - отец новой поэзии Ирана // Проблемы теории литературы и эстетики в странах Востока. - Москва, 1964. - С. 319-339.; Кляшторина В.Б. "Новая поэзия" в Иране. - Москва: Наука, 1975. - 256 с.; Николаевская М.Ю. Станавление "новой поэзии" в Иране (20-70-е годы): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Москва, 1989. - 18 с.

<sup>3</sup> Кязимов М.Д. Персидская поэзия конца XX века. - Баку, 2005. - 336 с.; Ходжаеров Н.Ф. Метрика поэзии Нима Юшиджа: дисс. ...канд. филол. наук. - Душанбе, 2000. - 190 с.; Джум'амуроди Н.А. Влияние Европейской литература на Иранскую поэзию XX века на примере творчества Нима Юшиджа (1920-1950гг): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Душанбе, 2021 - 24 с.;

<sup>4</sup> Шомухамедов Ш. Форс шеъриятининг асосий шакллари. - Тошкент, 2001. - 78 б.; Шоалиева Н.К. Сухроб Сипехрий ижодида инсоний ва ирфоний ғояларнинг бадий талкини: Филол. фан. номз...дисс. - Тошкент, 2008. - 153 б.; Юлдашева С.Т., Сотиболдиева С.Р. Эрон адабиёти (XVI-XX асрнинг 50-йиллари). - Тошкент, 2009. - 156 б.; Рузбех М. Ҳозирги замон Эрон адабиёти. - Тошкент: Янги нашр, 2012. - 298 б.

<sup>5</sup> ژوبل محمد حيدر. نگاهي با ادبيات معاصر در افغانستان. - كابل، ۱۳۳۷. - ۱۱۹ ص.

<sup>6</sup> صدقی محمد عثمان. سير ادب در افغانستان. - كابل، ۱۳۴۰. - ۴۶ ص؛ مستانه اصفهانی (ژاله). شعر نو در افغانستان در سالهای پس از جنگ دوم جهانی || خرد و كوشش. ش ۱۳. - شیراز، ۱۳۵۳. - ص. ۲۷-۶۱؛ حبيب اسدالله. ادبيات دري در نیمه اول سده بیستم. - كابل، ۱۳۶۶. - ۲۰۰ ص؛

“she’r-e nav” haqida xorijda Sharif Husayn Qosimiy, Shoh Akbar Shahrisoniy, Shuayb A’zamiy, Abdulmajid Arjumandiy, Muhammad Osif Gulzod, Latif Nozimiy kabi olimlar<sup>7</sup> esa o‘z maqolalarida “she’r-e nav”ni o‘rganishga harakat qilganlar. Tojik olimlaridan S. Mirzoyev, S. Saidov, X. Asozoda, N. Bexruz, S. Djannatmir<sup>8</sup>, turk olimi I. So‘ylemez<sup>9</sup>, o‘zbek olimlaridan A. Mannonov va R. Inomxo‘jayevlar kabi olimlar<sup>10</sup>ning ilmiy tadqiqot ishlarida ham zamonaviy dariy zabon adabiyotidagi “she’r-e nav” bilan bog‘liq bir qator fikrlar keltirilgan.

Shuningdek, Muhammad Surur Mavloyi, Mahmud Faroniy, Asadullo Habib, Chingiz Pahlavon, G‘ulom Muhammad La‘lzod kabilar<sup>11</sup> tomonidan zamonaviy dariy she’rlari to‘plami tuzilgan bo‘lib, ushbu to‘plamlarning muqaddima qismida “she’r-e nav” haqida qisqacha fikrlar aytilgan va shoirlarning she’rlari keltirilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Sharq mamlakatlari adabiyoti, adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” va “Sharq mamlakatlari adabiyotida janr va uslub masalalarini o‘rganish” mavzusida olib borilayotgan istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi** Afg‘onistonda “she’r-e nav” (“yangi she’r”)ning genezisi, shakllanishi va taraqqiy topishi, uning turlari va janr xususiyatlari Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she’riyati misolida yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

Afg‘oniston dariy zabon adabiyotida XX asrning birinchi choragidan boshlangan yangi she’riyat harakatining an’anaviy she’r bilan farqlarini aniqlash va 50-yillardan

---

خراسانی شجاعالدین. شعر معاصر دری. – کابل: امیری، ۱۳۹۱. – ۲۲۷ ص.؛ محمداسحاق فلز. پیشینه تجدید، پیدایش و بالندگی شعر نو در افغانستان. – کابل: سعید، ۱۳۹۲. – ۱۰۲۸ ص.؛ عبدالقیوم قویم. مروری بر ادبیات معاصر دری (۱۳۸۰-۱۲۵۹) – کابل، ۱۳۹۵. – ۳۰۶ ص.؛ نادری پرتو. پیشگامان شعر نو در افغانستان. – کابل: زریاب، ۱۴۰۰. – ۲۹۶ ص.

<sup>7</sup> قاسمی شریف حسین. در باره ادبیات معاصر دری افغانستان // ادبیات معاصر دری افغانستان. – دهلی، ۱۹۹۴م. – ص. ۱۰۰-۶.؛ قاسمی شریف حسین. مزایای شعر معاصر دری // ادبیات معاصر دری افغانستان. – دهلی، ۱۹۹۴م. – ص. ۱۰۶-۱۲۲.؛ شهرستانی شاه اکبر. ادبیات معاصر زبان فارسی دری در افغانستان // ادبیات معاصر دری افغانستان. – دهلی، ۱۹۹۴م. – ص. ۱۷-۳۹.؛ شعیب اعظمی. نمائی رمان و انقلاب در شعر معاصر دری افغانستان // ادبیات معاصر دری افغانستان. – دهلی، ۱۹۹۴م. – ص. ۸۸-۱۰۵.؛ ارجمندی عبدالمجید. بررسی تحولات زبان و شعر معاصر فارسی افغانستان // هفتمین همایش انجمن ترویج زبان و ادب فارسی. جلد ۱. – تهران، ۱۳۹۱. – ص. ۳۲۲-۳۳۷.؛ سرمحقق محمد آصف گلزاد. سپیده دم ادبیات معاصر دری // خراسان. – کابل، ۲۰۱۴م. – ص. ۵۵.؛ ناظمی لطیف. نگرشی بر ادبیات معاصر افغانستان // ایران نامه. – ایران، ۲۰۲۲م. – ص. ۵۹-۷۰.

<sup>8</sup> Мирзоев С. Прогрессивные тенденции развития поэзии на языке дари в послевоенном Афганистане: Дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 1965. – 310 с.; Саидов С. Прогрессивные тенденции развития поэзии на языке дари в послевоенном Афганистане: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1965. – 310 с.; Мирзоев С. Ранний этап просветительской литературы в Афганистане (первая треть XX века): Дисс. ...докт. филол. наук. – Душанбе, 1994 – 55 с.; Асозода Х. Адабиёти садаи XX-и форсии дари Афғонистон. 1 жилд. – Душанбе: Сино, 1996. – 162 с.; Асозода Х. Адабиёти садаи XX-и форсии дари Афғонистон. 2 жилд. – Душанбе: Сино, 1996. – 186 с.; Асозода Х. Адабиёти форсии ва се шохаи он. – Душанбе, Маориф, 1996. – 127 с.; Бехруз Н. Поэтическое мастерство Халилуллоха Халили: Дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2016 – 194 с.; Джаннатмир С. Социальная тематика поэзии Халилуллоха Халили: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2018. – 29 с.

<sup>9</sup> Söylemez İ. Modern Afganistan şiiri (1863-1973). – Istanbul: Ati yayınları, 2022. – 259 с.

<sup>10</sup> Mannonov A. Afg‘oniston xalqlari folklori va mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: TDSHI, 2001. – 152 b.; Иномхўжаев Р. Афғонистон дари забон адабиёти (XIII–XIX асрлар). – Тошкент: ТДШИ, 2016. – 200 б.; Иномхўжаев Р. Афғонистон дари забон адабиёти (XIX аср охири–XX аср бошлари). – Тошкент: ТДШИ, 2018. – 375 б.; Mannonov A. Ochilmay qolgan g‘unchalar // Sharqshunoslik masalalari. – Toshkent: Fan, 2022. – B. 113-126.

<sup>11</sup> مولانی محمد سرور. شعر معاصر افغانستان. – تهران، ۱۳۵۰. – ۱۷۶ ص.؛ فارانی محمود. سفر در توفان. – کابل، ۱۳۵۳. – ۷۹ ص.؛ فارانی محمود. روویای شاعر. – کابل، ۱۳۵۳. – ۳۵ ص.؛ حبیب آسداالله. خت سرخ. – کابل، ۱۳۶۲. – ۹۸ ص.؛ پهلوان چنگیز. نمونه های شعر امروز افغانستان. – تهران، ۱۳۷۱. – ۳۵۳ ص.؛ غلام محمد لعزاد. شعر معاصر دری در افغانستان. – دهلی، ۱۹۹۸م. – ۳۹۷ ص.

“she’r-e nav” (“yangi she’r”) oqimining o‘ziga xosliklarini, uning yuzaga kelishidagi omillarni aniqlash;

“she’r-e nav” oqimining paydo bo‘lishi va taraqqiyotiga oid tadqiqotlarni tanqidiy o‘rganish, “she’r-e nav” turlari va mohiyatiga oydinlik kiritish;

Boriq Shafeiy she’riyatining mavzular doirasi, poetikasini aniqlash, shoirning an’anaviy va “she’r-e nav”da yozilgan she’rlarining zamonaviy yangi she’riyatdagi o‘rnini belgilash va badiiy-uslubiy masalalarini ochib berish;

Partav Nodiriyning an’anaviylik bilan bir qatorda yangi she’riyatga qo‘shgan hissasini o‘rganish, shoirning “she’r-e nav” yo‘nalishidagi asarlarining mavzular doirasi, vazn xususiyatlari, ramzlar mohiyati va badiiy tasviriy jihatlarini yoritish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Boriq Shafeiyning “شهر حماسه” (“Jasorat shahri”)<sup>12</sup>, Partav Nodiriyning “قفلى بر درگاه خاکستر” (“Kul darvozasiga qulf”)<sup>13</sup>, “سوگنامه برای تاک” (“Uzumga qasam”)<sup>14</sup>, “دهکده بی بامداد” (“Tongsiz qishloq”)<sup>15</sup> she’riy to‘plamlaridagi she’rlar tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** Afg‘oniston dariyzabon adabiyotidagi an’anaviylikdan o‘sib chiqqan “yangi she’r” (“she’r-e nav”)ning taraqqiyot jarayoni, shakli va uslubiy xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda qiyosiy, sotsiologik<sup>16</sup>, tarixiy-biografik, formal metodlardan foydalanildi.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

XX asrning birinchi choragidan 50-yillarigacha bo‘lgan davrda dariyzabon yangi she’riyatning yuzaga kelishi va taraqqiyoti hamda 50-yillardan hozirgacha bo‘lgan davr she’riyatida an’anaviylik bilan o‘zaro raqobati jarayonlarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hodisalarning o‘rni ko‘rsatilgan;

50-yillardan jadal shakllanib rivojlanish jarayoniga o‘tgan “she’r-e nav” yuzasidan tadqiqotlar tahlili natijasida dariyzabon “she’r-e nav”ga xos bo‘lgan *mavzular doirasi, shakli, badiiy-stilistik masalalari, misralarning joylashuvi, qofiya tizimi, takroriy so‘zlar va urg‘u* kabi xususiyatlar aniqlangan;

Boriq Shafeiy ijodi misolida XX asrning 50-yillari dariyzabon adabiyoti she’riyatida *ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik, ijtimoiy-siyosiy mavzularning aks etishi*, an’anaviy va “she’r-e nav” yo‘nalishida yozilgan she’rlarning shakl va mazmun xususiyatlari, leksik, badiiy-tasviriy va uslubiy vositalari asoslangan;

dariyzabon “yangi she’r”ning 70-yillardan keyingi davrida an’anaviylik va novatorlikda shakl o‘zgarishlari, she’rlarda erkin vazn, qofiyaning nomuntazam qo‘llanishi yoki qo‘llanilmasligi, satr va bandlarning turlicha miqdori, so‘zlardagi urg‘u, inversiya, takrorlarning ahamiyati va ramzlarni ifodalashda shoirning individual uslubi Partav Nodiriyning she’riyati misolida dalillangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari.**

XX asrning birinchi choragidan e’tiboran Afg‘oniston dariyzabon adabiyotida an’anaviy she’riyat negizida paydo bo‘lgan yangi she’riyat harakatining vujudga

<sup>12</sup> شفیعی بارق. شهر حماسه. – کابل: تعلیم و تربیه، ۱۳۵۸. – ۲۴۳ ص.

<sup>13</sup> نادری پرتو. قفلى بر درگاه خاکستر. – کابل، ۱۳۶۹. – ۱۰۶ ص.

<sup>14</sup> نادری پرتو. سوگنامه برای تاک. – کابل، ۱۳۷۰. – ۵۹ ص.

<sup>15</sup> نادری پرتو. دهکده بی بامداد. – کابل، ۱۳۸۹. – ۸۲ ص.

<sup>16</sup> Bu haqida qarang. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent, 2011. – B. 32.

kelishi, shakllanishi va uning taniqli ijodkorlari, “yangi she’r”ning mazmun va shakl masalalari bosqichma-bosqich o’rganildi va xulosalar berildi. Afg’oniston dariyzabon “yangi she’r” (“she’r-e nav”)ning janr turlari, ularning an’anaviy she’riyatdan farqli jihatlari, mazmun doirasi va poetik xususiyatlari haqida tadqiqotchilarning fikr va mulohazalari birma-bir tanqidiy tahlilga tortildi va dariy yangi she’riyati bo’yicha hanuz alohida va chuqur monografik tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi ko’rsatib o’tildi;

“she’r-e nav” vakillari Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she’rlaridagi mazmuniy o’zgarishlarni aniqlashda o’sha davr va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat sotsiologik, tarixiy-biografik metod vositasida tadqiq etildi. Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy ijodida an’anaviy she’riyat bilan “she’r-e nav”ning o’rni va ularning mazmuniy, shakliy xususiyatlari birinchi marta o’rganildi. Olingan natijalar asosida Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she’riyatida “yangi she’r” turlaridan oq she’r va erkin she’rda yozilgan she’rlar yetakchi o’rinni egallashi aniqlandi. Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy ijodida an’anaviy va “she’r-e nav”da yozgan she’rlaridagi shakli, til va bayon uslubidagi farqlari, she’rlardagi ramziylik mohiyati formal metod orqali aniqlandi. Bu ikki shoir she’riyati haqida alohida-alohida xulosalar berildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishini shakllantirish mobaynida tanlangan metodlarning tadqiqot ishiga muvofiqligi, hamda ishning nazariy qismi yurtimizdagi va xorijdagi adabiyotshunos va tanqidchilar fikriga murojaat qilingan holda asoslangan, tanlangan badiiy manbalarni tadqiq qilishda tarixiy, sotsiologik, formal tahlil metodlaridan foydalanilgani, natijalarining nazariy qismi va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani to’g’risida tegishli tashkilotlardan olingan tasdiqlar dissertatsiyaning ishonchliligini ta’minlaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi zamon dariy adabiyotida yangi she’riyat harakatining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, ushbu jarayonda “yangi she’r” (“she’r-e nav”)ning o’rnini belgilash, uning turlari, badiiy-uslubiy qirralarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan zamonaviy dariy adabiyoti bo’yicha maxsus kurs va seminarlar olib borishda, she’r ilmiga oid amaliy mashg’ulotlarda qo’shimcha manba sifatida, dariy tili va adabiyotini o’rganishda, hamda, sharqshunoslik yo’nalishidagi talabalar uchun “Tili o’rganilayotgan mamlakat adabiyoti (dariy)”, “Zamonaviy adabiy oqimlar va yo’nalishlar”, “Mutaxassislikning nazariy masalalari” va “Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili”, “Sharq xalqlari adabiyoti poetikasi”, “Sharq xalqlari adabiyotida she’riy tizimlar” fanlari bo’yicha ma’ruzalar o’qishda keng foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Hozirgi zamon dariy adabiyotida “yangi she’r” genezisi va shakllanish jarayonlari (Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she’riyati misolida)” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari va olingan xulosalar asosida:

O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiy-ma’rifiy tadbirlarida, she’riyat kengashi yig’ilishlarida, yosh ijodkorlar to’garagi mashg’ulotlarida foydalanildi. (O’zbekiston Yozuvchilar Uyushmasining 2025-yil 17-fevraldagi 01-03/88-son ma’lumotnomasi). Natijada Afg’oniston “yangi she’r”i, uning paydo bo’lishi va

rivojlanish bosqichlari, Afg'oniston shoirlari ijodida “yangi she’r”ning tutgan o‘rni, shoirlarning she’rlari bilan o‘zbek o‘quvchilarini yaqindan tanishtirildi.

“Hozirgi zamon dariy adabiyotida “yangi she’r” genezisi va shakllanish jarayonlari (Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she’riyati misolida)” mavzusidagi dissertatsiyaning amaliy natijalari 2023-yil 11-iyundagi 26-IB qarori bilan tashkillashtirilgan “Adabiyotshunoslik terminlar lug‘ati” (sharq tillari kesimida)” mavzusidagi amaliy loyihasining dariy adabiyoti atamalarini shakllantirishda qo‘llangan. (Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2025-yil 01-maydagi 01-04-02/1214-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalariga tayangan holda “yangi she’r”, oq she’r, mansur she’r, erkin she’r, “mavj-e nav” kabi she’r turlari va tazod, tashbeh, talmeh kabi badiiy tasvir vositalari lug‘atdan joy olgan.

“Hozirgi zamon dariy adabiyotida “yangi she’r” genezisi va shakllanish jarayonlari (Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she’riyati misolida)” mavzusidagi dissertatsiyaning natijalari va materiallaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Bedorlik”, “Jahon adabiyoti” radioeshittirishlarida (2024-yil dekabr oyida) foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 4-fevraldagi 05-09-98-son ma’lumotnomasi). Natijada xalqlar o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqotlarda tarjimalarni radio orqali efirga uzatish davomida dissertatsiyadan olingan she’rlar va ularning tahlili ijodkorlar uchun ilmiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari muallifning 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyalardagi chiqishlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr qilingan bo‘lib, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, shundan 4tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**XX asr Afg‘oniston dariyzabon adabiyotida “she’r-e nav” masalasi**” deb nomlanib, ikkita faslga ajratilgan. Bobning “*Dariy adabiyotida “yangi she’riyat” harakati va shakllanish jarayonlari*” nomli ilk faslida

Afg‘oniston dariyzabon adabiyotida “she‘r-e nav” (“yangi she‘r”) harakatining paydo bo‘lishi tarixi va rivojlanish bosqichlari tadqiq etilgan.

XX asrning birinchi choraklaridan e‘tiboran ko‘plab sharq mamlakatlari, jumladan, Eron, Arab mamlakatlari, Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, Afg‘onistonda an‘anaviy she‘riyat bag‘ridan yangi she‘riyat<sup>17</sup>, “yangi she‘r”<sup>18</sup> uchun harakatlar boshlanib, bu harakat natijasida she‘riyatda an‘analar buzilib, she‘riyatning kutilmagan, ammo dolzarb ijtimoiy va badiiy masalalarini ko‘tarib chiqishlar boshlandi. Xususan, Eronda boshlangan va Afg‘oniston zamonaviy adabiyotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan bu harakat va uning masalalarining juda ko‘p qirralari hanuzgacha adabiy tanqidchilik va she‘rshunoslar orasida qizg‘in bahslarga, yangi-yangi qarashlar va muammolarga sabab bo‘lmoqda.

Shu kabi muammolardan biri – bu Afg‘oniston zamonaviy she‘riyatida Erondagi “she‘r-e nav” harakatining ta‘sirida nima o‘zgarishlar yuz berdi, degan masaladir. Bu masala Afg‘oniston adabiy tanqidida keng va chuqur tadqiq etilmagan.

XX asrning birinchi choragida Afg‘onistonda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlar zamonaviy dariy adabiyotiga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Bu o‘zgarishlar XX asrning boshidan ildiz otganligi ta‘kidlanadi. Bu davrni afg‘on olimlari “دوره روشنفکری” – “ma‘rifatparvarlik davri” deb atashadi<sup>19</sup>. Adabiyot sohasida zamonaviylikdan yaxshi boxabar bo‘lgan Mahmud Tarziy orqali adabiyotga yangilanish kirib keldi. Mahmud Tarziy o‘zining an‘anaviy shakldagi she‘rlarida birinchilardan bo‘lib yangi mazmuni tarannum etdi, ularga badiiy va stilistik jihatdan yangilanishlar kiritdi. Uning she‘rlarida zamon bilan hamnafas tarzda, jamiyat o‘zgarishlari, o‘sha davr talablari, xalqning o‘sha vaqtdan kelib chiqqan holdagi xohish-irodasi aks etdi.

Mahmud Tarziyning yaqin safdoshlari, yirik ma‘rifatparvar shoirlar: Abdulali Mustag‘niy, Abdulhodi Doviy, Solih Muhammad Qandahoriy, G‘ulom Muhayiddin Afg‘on, Abdurrahmon Ludin kabilar she‘riyatga yangi zamon nafasini olib kirgan adiblar edi. Bu davr adiblari o‘z fikrlarini bayon qilishda yangi shaklni tanlamadi, balki o‘sha mumtoz shakl va qolipga yangi fikrlarni singdirdilar.

<sup>17</sup> Yangi she‘riyat – XX asr boshlarida rivojlangan va an‘anaviy qolipda yangi mavzuni o‘zida mujassamlashtirgan ijod.

<sup>18</sup> “she‘r-e nav” yoki “yangi she‘r” tushunchalari bir ma‘noni anglatib, Afg‘oniston adabiyotiga XX asrning boshlarida ko‘proq eronlik Nimo Yushijning “Afsona” she‘ri ta‘sirida paydo bo‘lgan she‘riyatga nisbatan qo‘llaniladi. “Yangi she‘r” dastlab she‘rlardagi mazmuniy o‘zgarishlar asnosida yuzaga kelib, keyinroq shaklan ham an‘anaviy she‘rlardan tubdan farqlanuvchi qoliplarga ega bo‘ldi. Afg‘oniston dariyzabon she‘riyatida “yangi she‘r”ning ilk namunasi Xalilulloh Xaliliyning ijodiga mansub. (تهران، ۲۰۰۲. ص. ۵۸۰).

O‘rganishlar natijasida “yangi she‘riyat” harakati ikki jarayonga bo‘linishi aniqlandi.

1) an‘anaviy qoliplarda ifodalangan yangi mazmundagi she‘riyat;

2) ham shakli, ham mazmuni yangilangan hozirgi zamon “yangi she‘r”i.

Birinchi guruhga M. Tarziy va uning Mustag‘niy, Doviy, Ziyo Qorizoda kabi izdoshlari tomonidan yaratilgan an‘anaviy shakldagi she‘rlarda yangicha mazmuni o‘zida jamlagan she‘riyat kiradi. Ikkinchi guruhni X. Xaliliy “Tog‘ qo‘shig‘i” nomli she‘ri bilan boshlangan ham mazmunan, ham shaklan o‘zgargan she‘riyat tashkil qiladi.

Ham mazmunan, ham shaklan shakllangan “yangi she‘r” o‘z ichida yana ikki guruhga bo‘linadi:

1) “شعر نیمای” (nimoyi she‘r) eronlik Nimo Yushij nomidan olingan bo‘lib, bu turdagi she‘rda aruz vazni mavjud bo‘lsa-da, aruzning turli bahrlarida yoziladi va mazmunan yangilangan she‘rga nisbatan aytiladi.

2) an‘anaviy she‘r qoidalari va qofiyasiga amal qilmaydigan she‘rlar. Uning tarkibiga oq she‘r (شعر سپید), erkin she‘r (شعر آزاد), yangi mavj (موج نو), mansur she‘r (شعر منتور) kabi turlar kiradi.

<sup>19</sup> شریف حسین قاسمی. مزایای شعر معاصر دری // ادبیات معاصر دری افغانستان. - دهلی. ۱۹۹۴. - ص. ۱۰۸.

Shu davridayoq adabiyot doiralarida she'riyatdagi an'anaviylik va yangilanish borasida bahslar boshlangan edi. Shibliy No'moniy va Malik ush-shuaro Qori Abdulloxonlar she'rdagi o'zgarishlarni, yangiliklarni qoralab, an'anaviy usulni yoqlab chiqdilar. Ammo Xalilulloh Xaliliy garchi Hind va Xurosoniy maktablariga mansub bo'lsa-da, bu masalada bunchalik keskin e'tiroz bildirmadi va hatto yangi mazmundagi va shakldagi parchalarni taqdim qilgan edi. Xalilulloh Xaliliyning "Srude ko'hsar" ("Tog' qo'shig'i") (1930) nomli she'ri novatorlik tarzida yozilgan ilk namunalardan biri sifatida e'tirof etiladi<sup>20</sup>.

X.Xaliliydan keyin Muhammad Yusuf Oyina, Ziyozodalar kichik bo'lsa-da "yangi qolipdagi she'r" ("she'r-e nav")ning namunalarini boshlab bergan shoirlar sifatida tan olinadilar.

Afg'onistonda eronlik Nimo Yushij boshlagan she'riyatiga bo'lgan katta qiziqish 50-yillarda jadal tus oldi. "She'r-e nav", "toza she'r" kabi atamalar ham shu vaqtdan e'tiboran keng iste'molga kirdi. Aynan 1950-yildan boshlab poetik mushohadalar o'zgarib, bir guruh yosh modernist shoirlar yangi tajribalar, yangi ifoda va adabiy uslublar orttirib, o'z ijodini davom ettirayotgan zamondosh an'anachilarga taqlid qilishdan qochib, Nimo taklif qilgan yangi adabiy nazariya va vaznlarni yoyish, targ'ib qilish, talqin etishni o'ylay boshladilar. Shu davrda fors-dariy she'riyatga iste'dodli va mustaqil yoshlar yangicha g'oyalar bilan kirib keldilar. Jumladan, Boriq Shafeiy, Sulaymon Loyiq, G'ulom Dastagir Panjshiriy, Rahim Ilhom, Mahmud Foroniy, Mujda, Abdulhaq Vola kabilar shular jumlasidandir.

60-yillardan keyin "yangi she'r" va uning vakillarining mashhurligi juda yuqori bo'lib, ularning asarlari asosiy o'ringa chiqadi. Xususan, o'sha davrning "yangi she'r" namoyandalari orasida Mahmud Foroniy alohida salohiyat va o'ringa ega edi. Foroniy "yangi she'r" haqida quyidagi fikrni bildirib, "she'r-e nav"ning asosiy xususiyati – bu eski qolip va shakllarni sindirishdan iborat emas, yangi she'rda toza, zamonaviy o'y-fikrlar va yangi badiiylik tamoyillariga asoslangan bo'lishi va albatta, unda zamonaviy ruh va ma'no aks etishi lozim", – deydi<sup>21</sup>.

1978-yilda bo'lib o'tgan Savr voqealari<sup>22</sup> ortidan afg'on-sovet munosabatlari faollashdi, natijada adabiy aloqalar ham yanada kengaydi. "Savr voqealari"dan keyingi Afg'oniston adabiyotida, ayniqsa, realizm asosida jamiyatning dolzarb muammolarini ifodalash, hukmron siyosiy vaziyatni tanqid qilish, she'r tilining shiorga aylanishi mazmunidagi she'rlar juda avj olgan edi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli "“She'r-e nav” nazariyasiga oid qarashlar” deb nomlangan. Ushbu fasl "she'r-e nav" shakllanishi va rivoj topishi bilan bog'liq bir qator mavjud ishlarning tahliliga qaratilgan.

Afg'oniston va xorijda dariy she'riyatida yangi she'riyat, "yangi she'r" atamasi, "yangi she'r"ning genezisi, vujudga kelishi va shakllanishiga doir nazariy va amaliy

<sup>20</sup> Назармухаммад Б. Поэтическое мастерство Халилуллоха Халили: Дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2016. – С. 28.

<sup>21</sup> Назармухаммад Б. Поэтическое мастерство Халилуллоха Халили: Дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2016. – С. 28.

<sup>22</sup> 1978-yil 27-aprelda Afg'onistonda Sovet hukumatini qo'llab-quvvatlovchi Xalq Demokratik partiyasi tomonidan Afg'onistonning birinchi prezidenti Muhammad Doudxon hukumatiga qarshi o'tkazilgan inqilob. Aprel oyi Afg'oniston yilnomasiga ko'ra "Savr" deb atalgani sababidan bu voqea "Savr inqilobi", "Savr voqealari" nomlari bilan yuritiladi.

masalalarini maxsus o'rganish anchayin kech boshlandi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu masalada hanuz biron bir yaxlit monografik tadqiqot yaratilgan emas.

Dariy adabiyotidagi "yangi she'r"ga o'zining to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ta'sirini o'tkazgan, aniqrog'i dariy she'riyatida "yangi she'r"ning paydo bo'lishi, uning shakliy qiyofasi va rivojlanishiga sabab bo'lgan bosh omil Eronda XX asrning boshlarida boshlangan an'anaviy she'riyatga, uning qoliplari hamda eskirgan badiiy unsurlariga qarshi yangicha modernistik qarashlarning rivoj topishi bilan bog'liqdir. Bu masalaga oid Eronning o'zida ham, xorijda ham bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ammo hamon bu masala yuzasidan bahslar va turli nazariy munozaralar davom etmoqda. Eron adabiyotshunosligida A. Dastg'ayb, H. Zarrinkub, A. Solis, Sh. Langrudiy, M. Fasoyi, K. Hasanliy, N. Xonlariy kabi ko'plab atoqli adabiyotshunos olim va munaqqidlarning maqola va kitoblari bunga dalildir.

Eron adabiyotida yangi she'rning shakliy va mazmuniy masalalarini o'rganilishi XX asrning 50-yillari oxirlariga to'g'ri keladi. Bu borada eronlik olim A. Dastg'aybning "تحليلی از شعر نو فارسی" ("Fors yangi she'ri tahlili") nomli kitobi<sup>23</sup> e'tiborga loyiq. Bu kitob zamonaviy she'riyatning o'zgarishlari va "fors yangi she'r"ning oqimlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Muallifning e'tiroficha, kitobda 1960-yilga qadar nashr etilgan she'rlar, she'riy to'plamlar yuzasidan tadqiqot olib borilgan<sup>24</sup>. Bu olimning Eron "yangi she'r"i, uning xususiyatlari va bu oqimning asoschisi Nimo she'riyati haqidagi fikrlarini quyidagicha xulosalash mumkin. Nimo she'r vaznini inkor etmaydi, ammo u qat'iy bo'lmasligi, shoirning tafakkuri va hislarini erkin ifodalash orqali yuzaga chiqishi kerak. Misralar an'anaviy g'azal qoidalardan tashqariga chiqib, ma'lum bir bahrga tushish uchun keraklicha bo'g'inli so'zlarni keltirilishi yoki fikrini uzaytirishi shart emas. Baytdagi hijolarning miqdori, tartibi ohang va she'riy kayfiyatga bo'ysundiriladi, she'rlardagi qaysidir misraning uzun, qaysidir misraning qisqaligi shu bilan izohlangan. Nimo she'rida kam bo'g'inli so'zlarni qo'llashning ham o'z o'rni bor. Chunki ba'zan bir so'zni ko'proq cho'zish yoki boshqa so'zni yengilroq talaffuz qilish orqali she'rdagi kerakli vaznni saqlab qolish mumkin<sup>25</sup>. Nimo she'riyatida qofiyalar ham faqatgina shoir zarur deb hisoblagan o'rinda keladi.

Afg'oniston dariyzabon yangi she'riyatini o'rganish masalasining tarixiga e'tibor berilsa, dariy she'riyatida yangilanish borasidagi dastlabki kitoblaridan biri M.H. Jo'balning aynan zamonaviy afg'on adabiyotiga oid "نگاهی با ادبیات معاصر در افغانستان" ("Afg'onistonning zamonaviy adabiyotiga nazar") nomli risolasi<sup>26</sup> 1958-yil nashr etilganini ko'rish mumkin. Manba qadimgi davrlardan XX asrgacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Olim risolasida jangnomanavislik, tarixnavislik, eski uslublar haqida xabar berib, mustaqillik davridan keyingi adabiyotga o'tadi va adabiyotning boshlanishini "Siroj ul-axbor"ning nashr etilishi bilan bog'lab, matbuotning nashr etilishi, unda olib chiqilgan masalalarga to'xtaladi. Olim bu davr haqida aynan ma'rifatparvarlik adabiyoti mazmunidagi davrning boshlanishi degan fikrni ilgari suradi.

<sup>23</sup> عبدالعلی دست غیب. تحلیلی از شعر نو فارسی. - تهران، شاه آباد، ۱۳۴۵. - ص. ۳.

<sup>24</sup> عبدالعلی دست غیب. تحلیلی از شعر نو فارسی. - تهران، شاه آباد، ۱۳۴۵. - ص. ۳.

<sup>25</sup> عبدالعلی دست غیب. تحلیلی از شعر نو فارسی. - تهران، شاه آباد، ۱۳۴۵. - ص. ۴۶.

<sup>26</sup> ژوبیل محمد حیدر، نگاهی با ادبیات معاصر در افغانستان. - کابل، ۱۳۳۷. - ص. ۱۱۹.

M.H. Jo‘balning mazkur asari 1958-yilda nashr etilganligi nuqtai nazaridan qaralsa, bu davrda yangi she‘riyat endigina sof holdagi “yangi she‘r” darajasiga ko‘tarilganligi, shu sababli ham “yangi she‘r”ning o‘ziga xosliklari adabiyotshunoslik va she‘rshunoslik nazariyalari bilan ochib berilmaganligi o‘rinlidir.

1974-yilda nashr qilingan shoir va adabiyotshunos M. Foroniyning “سفر در توفان” (“Bo‘rondagi sayohat”) nomli she‘riy to‘plami so‘zbohisida M. Foroniy “yangi she‘r”ning adabiy jarayondagi o‘zgarishlari haqida yozarkan, uning an‘anaviy she‘riyatdan farqlovchi 5 jihatini yoritib berdi: *birinchisi*, mazmundagi o‘zgarishlar; *ikkinchi* jhati, tasviriy vositalardagi tafovutlar; *uchinchisi*, she‘r tilida ko‘rinadi, ya‘ni bugungi shoirlar hamma biladigan hamma tushunadigan, hatto kundalik suhbatlarda ham foydalanadigan tilda – zamonamiz tilida she‘r yozadi; *to‘rtinchi*, qofiyada erkinlik; *beshinchisi*, vaznning o‘zgarishi<sup>27</sup>.

Ushbu nuqtai nazar mazkur tadqiqot doirasida alohida ahamiyat kasb etadi, zotan “yangi she‘r”da yozilgan she‘rlarni o‘rganishlar natijasida she‘r shakli va mazmunida aynan shu jihatlar borligi kuzatildi. Shu bilan birga Foroniyning fikrlariga qo‘shimcha qilib, she‘r misralarining uzun-qisqa, zinapoya shaklida ifodalanishi, urg‘uning ahamiyati ham “yangi she‘r”ning o‘ziga xosliklaridan biri sifatida ko‘rildi.

Aytish lozimki, M. Foroniygacha bo‘lgan afg‘on adabiyoti, she‘riyati xususida so‘z boradigan kitoblarning aksari “Afg‘oniston zamonaviy adabiyoti” nomi ostida XX asrning 1-yarmigacha (aksariyati 30-yillarigacha) bo‘lgan davrni qamrab olmoqda. Shu sababli ham bu asarlarda dariyazabon adabiyotga endigina kirib kelgan “yangi she‘r”ning shakl, vazn, qofiya, ritm masalalari yetarlicha yoritib berilmagan.

Shujoyiddin Xurosoniy “شعر معاصر درى” (“Zamonaviy dariy she‘riyati”)<sup>28</sup> nomli kitobida yuqoridagilardan farqli ravishda asosiy e‘tibor zamonaviy dariy adabiyoti tarixiga emas, hozirgi zamon dariy she‘riyatidagi “yangi she‘r”ga qaratilgan. Tadqiqot afg‘on adabiyotida “yangi she‘r”ning turlari yuzasidan olib borilgan jiddiy dastlabki tadqiqot sifatida ahamiyatlidir. Xususan, muallif unda oq she‘r, vaznsiz she‘r (mansur she‘r) o‘rtasidagi bahslarni o‘rtaga tashlarkan, Afg‘oniston she‘riyatida ham oq she‘r, erkin she‘r, mansur she‘r o‘rtasidagi aniq chegaralar, qat‘iy me‘yorlar asosidagi farqlar aniqlashtirilmagan, qolaversa o‘zaro qo‘shilib ketgan. Bu narsa Eron adabiyotida ham uchraydi. Hattoki she‘rlarning nomlanishida ham tafovutlar mavjud. Masalan, Sh. Xurosoniy “oq she‘r” (“she‘r-e sapid”) deb turib qavs ichida “ozod<sup>29</sup> Shomluyi”<sup>30</sup> atamasini ishlatib ketgan.

Afg‘onistonlik yana bir “yangi she‘r” tadqiqotchisi Muhammad Is‘hoq Foiz o‘zining “پيشينه تجديد، پيدايش و بالندگی شعر نو در افغانستان” (“Afg‘onistonda yangi she‘rning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va taraqqiyoti”)<sup>31</sup> nomli asarida “ozod nimoyi she‘riyat”, “oq she‘r (Shomluyi)”, “mansur she‘r” kabi atamalarni qo‘llagan.

Afsuski, Muhammad Is‘hoq Foizning bu fikrlari asosan, Eron yangi she‘riyati nazariyotchilaridan olingan bo‘lib, uning yangi she‘r turlari, vazni, qolipi, mazmuni,

<sup>27</sup> Иномхўжаев Р. Афғонистон дариёзабон адабиёти (XIX аср охири–XX аср бошлари). – Тошкент, 2018. – Б. 300-301.

<sup>28</sup> شجاع الدين خراسانى. شعر معاصر درى. – كابل، ۱۳۹۱. – ۲۲۷ ص.

<sup>29</sup> آزاد “ozod” fors-dariy tilidan “erkin” deb tarjima qilinadi

<sup>30</sup> شجاع الدين خراسانى. شعر معاصر درى. – كابل، ۱۳۹۱. – ۱۲۴ ص.

<sup>31</sup> محمداسحاق فايز. پيشينه تجديد، پيدايش و بالندگی شعر نو در افغانستان. – كابل: سعيد، ۱۳۹۲. – ۱۰۲۸ ص.

tasvir vositalari, tili kabilar haqidagi fikrlarining birortasi Afg'oniston dariy she'riyati misolida berilmagan.

Yangi she'r" turlaridan Afg'onistonda keng tarqalgani nimoyi she'r, oq she'r va erkin she'r she'rlardir. Oq she'r vaznga ega bo'lmaydi, ammo unda ritm bor. "Oq she'r" qofiyasiz bo'ladi va shu jihati bilan erkin she'rdan farqlanadi. Erkin she'rda qofiya shoirning xohishiga ko'ra erkin tarzda, shoir ixtiyor etgan misralarda keltirilishi mumkin yoki umuman keltirilmaligi ham mumkin, shuningdek erkin she'r bir xil o'lchovga ega emas, misralardagi bug'in va ruknlar soni turlicha bo'ladi. Ushbu she'rda ritmni misralardagi ohangdosh tovushlar, takroriy so'zlar, teng bug'inli misralarning takrorlanishi, she'rda musiqiylikni yuzaga chiqarishda ko'mak beradigan inversiya hodisalari kabi sintaktik qurilishlar hosil qiladi. Oq she'r va erkin she'rning mansur she'rlardan ajratib turadigan asosiy belgilaridan biri – bu uning grafikligidir. Mansur she'rlar shaklan nasriylikka xos, ammo mazmunda hissiyotlarning ustunligi va ohangdoshlikning mavjudligi bilan nasriy matnlardan farqanadi.

Dissertatsiyaning "**Boriq Shafeiy ijodida an'anaviylik va "yangi she'r"ning aks etishi**" deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi fasli "*Boriq Shafeiyning an'anaviy she'riyati*"ga bag'ishlanib, unda dariyzabon shoir Boriq Shafeiyning an'anaviy shaklda yozgan she'rlari tahlilga tortilgan.

Afg'onistonning dariyzabon zabardast shoiri, so'nggi davr uslubi namoyandalaridan biri Muhammad Hasan Boriq Shafeiy 1931-yil (1932-yil)<sup>32</sup> Kobulda tug'ilgan. Dastlab an'anaviy usulda she'rlar bitgan shoir keyinchalik, she'rdagi o'zgarishlarning tarafdorlaridan biri sifatida "she'r-e nav"da ham ijod qila boshladi. U she'rlarida yangi mazmuni yuzaga chiqarish bilan birga, ko'plab o'quvchilarning diqqat markaziga aylangan, tobora ommalashib borayotgan yangi qolipda ham she'rlar yozdi.

1978-yil – Savr to'ntarishigacha bo'lgan davrda Afg'onistonda qator tadqiqotlarda "inqilobiy" deb nom olgan adabiyot vujudga keldi. Shoirning yirik she'riy to'plamlaridan biri – "شهر حماسه" ("Jasorat shahri") (1979) aynan shu davr adabiyotining yorqin namunasidir. To'plamdagi uning bir qator, "همه خوابند" ("Barcha uyquda"), "داغ عشق" ("Ishq dog'i"), "هر قدر" ("Har qancha"), "آبله پا" ("Oyoq qadog'i"), "جان هنر" ("San'atning qalbi"), "گوهر نایاب" ("Noyob gavhar") kabi she'rlari shaklan aynan an'anaviy g'azallar turkumiga mansubdir.

Boriq Shafeiyning g'azal janrida yozilgan ushbu "گوهر نایاب" ("Noyob gavhar") she'ri shaklan an'anaviylikka xos bo'lsa-da, mavzu, mazmun va g'oya jihatidan zamonaviy adabiyotga xosdir.

آتش است این در دل پیمانہ آخر آب نیست

هر دل بیتاب را تاب شراب ناب نیست

شعله در بر کشیدن کار هر بیتاب نیست<sup>33</sup>

طاقت پروانه خواهد آرزوی آتشین

*Har bezovta qalb sof mayni ko'tara olmas,*

*U olovdur qalbd so'nggi tomchi bo'lmasa*

*Olovli istaklar parvona chidamini talab etadi,*

*Shu'laga quchoq ochmoq har qanday dili bezovtaning ishi emas.*

<sup>32</sup> Тихонов Н. Из современной Афганской поэзии. – Москва: Радуга, 1983. – С. 163.

<sup>33</sup> شفيعی بارق. شهر حماسه. – کابل: تعلیم و تربیه، ۱۳۵۸. – ص. ۱۰۵.

An'anaviy g'azallarda ishq-muhabbat, yorning go'zalligi, u bilan munosabatlar tarannum etilgan bo'lsa, Boriq Shafeiyning g'azallarida lirik qahramonning sevgi obyektini asosan ijtimoiy-siyosiy mavzulardir. Bu she'rlarda an'anaviy oshiqona ruh endi vatan va xalq hayoti, uning taqdiri bilan bog'liq xavotirli masalalar tomon almashinib boradi.

Shaklga e'tibor berilsa, ushbu g'azal olti baytdan iborat, qofiyalanish tartibi an'anaviy g'azal kabi *a-a, b-a, v-a, g-a, ...* tarzida va maqtada shoirning taxallusi keltirilgan. Matlada va har juft misrada so'zi radif sifatida qo'llanilgan.

She'ning badiiy tasvir vositalarida an'anaviylik yonida o'zgarishlar yuzaga kelganligi kuzatiladi. Jumladan, yuqorida keltirilgan she'rda "*sham*", "*shu'la*", "*parvona*" an'anaviy "*oshiq*" va "*ma'shuq*" obrazini emas, balki yangicha mazmuni ochib bergan. Bu yerda "*shu'la*" – yorqin kelajak va unga bo'lgan yo'lni yoritib turuvchi nur. "*Parvona*" kuyishini bilsa-da, sham bilan o'ynashadi, shanga oshiq, uning ko'yida kul bo'lishga rozi bo'ladigan sabri bor. Mazmuniy o'zgarishlarga uchragan yangi davr adabiyotida "*parvona*" "*sabr-toqat*" ramzi sifatida qiyinchiliklarni yengib o'tishga, katta orzular qilishga o'zida kuch topa olishni ifodalaydi. Shoir bu she'rda insonlarni o'z qobig'iga o'ralgan holda, o'z atrofida aylanib qolmay, dunyo sahnasiga chiqishga undaydi. Jo'shqin hayotda harakatda bo'lishni talab etadi.

Misralar an'anaviy g'azalchilik uslubining elementlarini saqlab qolgan she'rlar sirasiga kiruvchi "هر قدر" ("Har qancha") g'azalida radif sifatida نرسيد so'zi kelgan. Ammo matlada takrorlangan radiflarning butun g'azal davomida emas, balki faqat juft misralarda qo'llanilib kelganini ko'rishimiz mumkin. G'azalning qofiyalanishiga e'tibor berilsa, u janr talabiga muvofiq an'anaviy *a-a, b-a, v-a, ...* tarzidadir:

هر قدر ناله کشیدیم بجایی نرسید	هر قدر ناله کشیدیم بجایی نرسید
چه فغانها که کشیدیم، کسی گوش نکرد	چه فغانها که کشیدیم، کسی گوش نکرد
ما که از قافله ماندیم مگر وقت رحیل	ما که از قافله ماندیم مگر وقت رحیل
"بارق" از درد مکن شکوه که در شهر کران	"بارق" از درد مکن شکوه که در شهر کران

*Har qancha nola qildim hech bir joyga yetmadi*  
*Dardimiz eskirdi, ammo davo topmadi*  
*Qancha nola chekdik, ham hech kim quloq osmadi*  
*Biz bilan yakdil hech bir sado chiqmadi*  
*Biz karvondan ortda qoldik, jo'nash vaqtida*  
*Uyquda edik yoki karvon qo'ng'irog'i bizga yetib kelmadi...*  
*"Boriq" o'tkinchi dunyoda hech ham dard chekma*  
*Har qancha nola chekdik, hech bir joyga yetmadi.*

G'azaldagi an'anaviylikka xos yana bir xususiyat shuki, unda vazn saqlangan holda yakkaqofiyaviylik mavjud. Shuningdek, matlanning birinchi misrasi maqtaning oxirgi misrasida takrorlangan. G'azalda shoir zamondan shikoyatlarini izhor qiladi, ya'ni hamma harakatda bo'ladigan bir vaqtda biz uxlab qoldikmi, taqdir bizni ustimizdan o'z hukmini o'qiguncha biz faqat ko'z yosh to'kib, jigar qonimizni ichishdan bo'lak boshqa hech narsa yetmadi, deb kuyunadi.

Shoir uchinchi baytda an'anaviy "*karvon*" va "*qo'ng'iroq*" obrazlaridan foydalangan. Mumtoz adabiyotda karvon "*yo'l*" ma'nosida qo'llangan, ya'ni "*hayot*

<sup>34</sup> شفیعی بارق. شهر حماسه. – کابل: تعلیم و تربیه، ۱۳۵۸. – ص. ۲۱.



*Ey nola!*  
*Necha yillarki qalbdan otilib chiqasan,*  
*Jo 'shqin va issiq.*  
*Lovullagan va otashin.*

ای ناله!  
سالهاست که بیرون جهی ز دل،  
هنگامه ساز و گرم.  
پر سوز و آتشین.<sup>37</sup>

Darhaqiqat, ushbu dard, iztirob, qayg‘u hissi yuqorida keltirilgan she‘rda “nola”, “qorong‘i kecha”, “zulmat” poetik obrazi yordamida ifoda etildi. Shoirning qahramoni – “Nola!” unga murojaat qilish orqali tuyg‘uni asosiy o‘ringa chiqarib, uni jonlantiradi va o‘z hislarini izhor etadi. Bunday ifoda tarzi “yangi she‘r”ning birlamchi xususiyatlaridandir.

Yana bir xususiyati shaklda namoyon bo‘ladi. Bunda shoir shaklni mazmunga bo‘ysundiradi. She‘riy shaklni hosil qilishda qofiyaning<sup>38</sup> ayricha o‘rni mavjud bo‘lsa-da, Boriq Shafeiy she‘rlarida qofiya masalasida erkinlik kuzatiladi. Shoir she‘rdan ko‘zlagan maqsadini yuzaga chiqarish uchun nafaqat qofiyada, balki misralar va bandlar tengligi kabi vazn xususiyatlaridan ham voz kechadi. She‘rdagi zinapoyadorlik, she‘rda murojaat qilinayotgan obrazning misra va band boshiga chiqarilishi, poetik takrorlar “yangi she‘r”ning keyingi, shu bilan birga asosiy xarakterlaridandir.

Xususan, ushbu she‘rda fonetik takrorlardan alliteratsiya hodisasini ko‘rish mumkin. She‘r bo‘ylab “r” va “z” tovushlari takrorlanib kelgan (*birun, garm, po‘r, tiyragi, gir-u dore dahr, ...; z, suz, az, besuz, ...*);

Leksik takrorlardan anafora hodisasini ko‘rish mumkin. (نی – ne inkor yuklamasining 3 o‘rinda takrorlanishi; ای ناله – ey nola birikmasining 2 o‘rinda takrorlanib kelishi).

Shoirning yana bir “رها کن!” (“Ozod qil!”) nomli she‘ri ham “she‘r-e nav”ning yorqin ifodasidir. Ushbu she‘rda ham qofiya va vazn mavjud emas, banddagi misralar ham turlicha. Ammo bu she‘rning salohiyatiga ta‘sir qilmagan, aksincha, fikrni erkin bayon qilishga yo‘l ochgan.

*Ozod qil!*  
*Meni mushtipar hayotimni ozod qil,*  
*Oshyonlaring domidan.*  
*Qalbm erkin parvoz qilishni xohlamoqda,*  
*Keng osmonlarda.*  
*Ozod qil!*  
*Jonsiz qanotlardan ozod qil.*

رها کن!  
رها کن زندگی مشت پرم را،  
ز دام آشیانها.  
که میخواهد دلم پرواز آزاد،  
فراز آسمانها.  
رها کن!  
رها کن کاندر کی بال و پرم هست.<sup>39</sup>

Shoir she‘rda yolg‘on, razolat bilan to‘lgan hayotdan bezganini, erkin hayot istagini bayon qiladi. Shoir bu yerda erkinlik ramzi bo‘lgan “qanot” obrazidan foydalanib, ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni keng va chiroyli tasvirlagan. Unda shoir

<sup>37</sup> شفیعی بارق. شهر حماسه. – کابل، ۱۳۵۸. – ص. ۷۳.

<sup>38</sup> Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.; Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1979. – 416 б.; Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 406 b.; Маматова А.Н. Ўзбек адабиётида сарбаст шеърининг шаклланиши ва унинг бадиий эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 122 б.; Муллахўжаева Р.Т. 80-йиллар ўзбек шеърининг поэтик тафаккурининг янгиланиши ва Шавкат Раҳмон ижоди: Филол. фан. доктори ... дисс. – Тошкент, 2020. – 145 б.; Муллахўжаева Р.Т. Тафаккур янгиланиши. – Тошкент: Мухаррир, 2019. – 160 б.

<sup>39</sup> شفیعی بارق. شهر حماسه. – کابل، ۱۳۵۸. – ص. ۱۰۷.

qanotlarim bor, tanamda kuchim ham bor, ammo qanotlarim jonsiz, uchay desam ucha olmayman, bu cheklovlardan, besamarliklardan nima foyda deb og‘rinadi.

Yuqoridagi kabi ushbu she‘rda ham takrorlar mavjud. Bu she‘rda fonetik va leksik takrorlar bilan bir qatorda “رها کن” (“ozod qil”) misrasini takrorlash orqali sintaktik takrorlar uchraydi. Shuningdek, misralarning uzun-qisqa, zinapoya shaklida berilishi ham “she‘r-e nav”ga xosdir.

Dissertatsiyaning “Partav Nodiriy ijodida “she‘r-e nav” takomili deb nomlangan uchinchi bobining birinchi fasli “Partav Nodiriy ijodida adabiy vorislik va “she‘r-e nav”” deb atalgan. Ushbu faslda Afg‘onistondagi modernistik oqimning yetakchi shoiri Partav Nodiriyning ham an‘anaviy, ham “she‘r-e nav”da yozilgan she‘rlari tahlilga tortilgan

Abdulqayum Partav o‘g‘li Nasrulloh Partav Nodiriy 1952-yilda Afg‘onistonning shimoli-sharqidagi Badaxshon viloyatida tavallud topgan. Shoir ijodining dastlabki yillarida yozilgan va nashr etilgan she‘rlarida an‘anaviy shakl va vazndagi she‘rlarni ham uchratish mumkin. Ammo bu shoir oxirgi 35-40 yil davomida “yangi she‘r” turkumida ijod qilib kelayotgan bo‘lsa-da, shoir o‘z ijodini an‘anaviy shakllardagi (g‘azal, qasida, ruboiy va h.k.) she‘rlar qolipida ijod qilishni boshlaganligi ma‘lum va shoir uchun an‘anaviy she‘riyatga vorislik begona emas.

Vorisiylik, ma‘lumki, shaklda va mazmunda aks etadi. Shaklan an‘anaviylikni vazn, ritm, qofiyada ko‘rinsa, mazmuniy vorisiylikni g‘oya va obrazlar timsolida ko‘rish mumkin. Xususan, uning “قفلی بر درگاه خاکستر” (“Kul darvozasiga qulf”) she‘riy to‘plamidagi “شکوفه آتش” (“Olov guli”) nomli she‘ri (1980) g‘azal janrida yozilgan edi:

من عاشق شکوفه رنگین آتشم  
من از نژاد کاوه ام از نسل آرشم  
سرتا به پا چو شمع گدازان به بزم عشق  
می سوزم و ز سینه فغانی نمی کشم.<sup>40</sup>

*Men olovning rang-barang guli oshig‘iman*

*Men Kova qavmidanman, Oriylar naslidan*

*Ishq bazmida boshdan oyog‘igacha yonayotgan shamdek*

*Kuyaman va qalbdan nola chekmayman*

Ushbu an‘anaviy shakldagi g‘azal aruzning rajazi musammani maxbuni mahzuf bahrida yozilgan bo‘lib, -- / - v -- / - v - v / - v -- tarzida taqte‘ qilinadi.

Ushbu 4 ruknli mustaf‘ilun/ mafo‘ilun/ mustaf‘ilun/ fa‘lun tarmoq vaznlariga ega g‘azalning ilk baytidagi “otasham-orsham” so‘zlari keyingi baytlarning juft misralaridagi “namikasham, mushavvasham, sarkasham, ...” kabi ohangdosh so‘zlari bilan a-a, b-a, c-a, ... tarzida qofiyalangan. Misralardagi “otasham-orsham” qofiyalarida otash-orsh o‘zak, -am qo‘shimcha, ushbu qofiyadosh so‘zlar va keyingi ohangdosh so‘zlar - namikasham, mushavvasham, sarkasham so‘zlaridagi -sh qofiyaning tayanch tovushi raviy hisoblanadi. G‘azal misralaridagi raviy hisoblangan -sh tovushi ham misradan misraga o‘tib borarkan, go‘zal musiqiylik va ritmni o‘zida mujassam etgan.

Qofiya san‘ati bilan birga Partav Nodiriy g‘azallarida, asosan, an‘anaviy she‘rlarga xos bo‘lgan qator lafziy va ma‘naviy san‘atlarni qo‘llab, g‘azalni mazmunan boyitib borgan. Xususan, maqta‘da o‘z ismini (Partav) keltirgan shoir, ushbu o‘rinda iyhom san‘atini ham qo‘llagan. Bu o‘rinda “Partav” so‘zi ham

پرتو نادری. قفلی بر درگاه خاکستر. - کابل، ۱۳۶۹. - ص. ۲۸. 40

muallifning taxallusi, ham “porlamoq” ma’nosida ishlatilgan. Shuningdek, g‘azalda “yonayotgan shamdek”, “to‘lqin kabi beqaror”, “shu‘la kabi isyonkor” jumllarida tashbeh san’atini; “bosh-oyoq”, “sham-yonmoq”, “zulmat-tun-nursiz” kabi so‘zlarini keltirish bilan tanosib san’atini; Firdavsiyning “Shohnoma” asaridan “Kova” obrazini keltirish bilan talmeh san’atlarini qo‘llagan.

Shoirning “nimoyi” va “erkin she’r”da yozgan namunalari uni juda original va ijodkor shoir sifatida ajratib turadi. U o‘zini ko‘proq erkin she’rda qayta kashf qildi. Erkin she’r an’anaviy aruz vazni, izometriya va qofiyadan holi bo‘lgani sababli unda boshqa unsurlarning mavjudligi zaruriydir. Masalan, erkin she’rda musiqiylik bilan birga tuyg‘ular tasviri, insonlar hayotini aks ettiruvchi lavhalar sodda va ta’sirchan bayon qilinadi.

Jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar zamonning achchiq haqiqatidir. Shu o‘rinda Shomluning shunday so‘zlari yodga tushadi: “She’r hayot taassurotlari emas, balki hayotning o‘zidir”<sup>41</sup>. Bu Partav Nodiriy she’riyatida o‘z isbotini topgan:

<i>Qo‘llaring sovuq</i>	$4+2=6$	دستان تو سرد است
<i>Go‘yoki yolg‘izsan</i>	8	آن سان که خلوت تو
<i>Ko‘zlaring taqdirimning tasvirsiz ko‘zgulari</i>	$4+15=19$	چشمان تو آیینہ های بی تصویر سرنوشت من است
<i>Dovonning nariga tarafida bo‘ron cho‘zilar</i>	$10+6=16$	توفانی در آن سوی گردنه خمیازه می کشند <sup>42</sup>

Shoirning “nimoyi” va “erkin she’r”da yozgan namunalari uni juda original va ijodkor shoir sifatida ajratib turadi. U o‘zini ko‘proq erkin she’rda qayta kashf qildi. Erkin she’r an’anaviy aruz vazni, izometriya va qofiyadan holi bo‘lgani sababli unda boshqa unsurlarning mavjudligi zaruriydir. Masalan, oq she’rda musiqiylik bilan birga tuyg‘ular tasviri, insonlar hayotini aks ettiruvchi lavhalar sodda va ta’sirchan bayon qilinadi.

Partav Nodiriyning yana bir “درخت” (“Daraxt”) nomli she’rida ham poetik sintaksis, poetik figuralarning ajib namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Shoir she’rda takror so‘zlarni qo‘llash orqali o‘quvchining diqqatini shu so‘zga qaratadi. Bu bilan she’rning ta’sirchanligini oshirib ham beradi.

<i>Menga ayt!</i>	4	به من بگو!
<i>Menga ayt!</i>	4	به من بگو!
<i>Qaysi qo‘l urug‘ sepd</i>	7	کدام دست بذر افشان
<i>Giyohsiz bog‘imiz</i>	10	به خشک باغ بی گیاه ما
<i>Qurib qoldimi</i>	6	مگر فشانده است <sup>43</sup>

“Yangi she’r”larda qofiya o‘rnini bosuvchi intonatsiya, pauza kabi unsurlar tinglovchining e’tiborini o‘ziga jalb qilib keldi. Partav Nodiriyning bu she’rida qofiya bo‘lmasa ham tasvirdagi izchil voqelik, so‘zlarning mantiqan bog‘liqligi asosida qurilgan konstruksiya, ritm, poetik takrorlar she’rni go‘zallashtirib borgan.

Ushbu she’rda “yangi she’r”ga xos yana bir xususiyat, *inversiya* hodisasi mavjud. Shoir she’rdan ko‘zlagan maqsadiga o‘quvchining e’tiborini qaratish uchun gap

<sup>41</sup> شجاع الدین خراسانی. شعر معاصر دری. – کابل، ۱۳۹۱. – ص. ۱۳۱.

<sup>42</sup> Nodiriy P. Qo‘rg‘oshin o‘q otilgan lahzalar. “Daraxtlarning yashil yolg‘izligi”. <https://www.partawnaderi.com>. (Manbaga 02.03.2024 da murojaat qilindi.)

<sup>43</sup> پرتو نادری. قفلی بر درگاه خاکستر. – کابل، ۱۳۶۹. – ص. ۱۰.

bo'laklarining o'rnini almashtiradi va fikrni ifodalagan asosiy gap bo'lagini oldinga chiqaradi. Biz yuqorida ko'rgan she'r va aksariyat "yangi she'r" turlarida bu joylashuv tartibi o'zgartirilgan:

*Qaddini tuproqdan dast ko'tarar*,  
*Qaytsinlar* kabi...  
*Qaytsinlar* kabi...  
*Qaytsinlar* kabi...

Uchunchi bobning ikkinchi fasli "Partav Nodiriyning "she'r-e nav" uslubidagi she'rlarida ramzlar talqini" deb nomlanib, shoirning she'rlarida ramzlardan foydalanishdagi mahorati ochib berilgan.

Partav Nodiriy she'rlarida yorug'lik va zulmat yetakchi o'rinni egallaydi. Olamga bunday poetik nuqtai nazar bilan qarashda yorug'lik va zulmat o'z ma'nosidan tashqariga chiqadi va ramziy ravishda "kelajakka bo'lgan umid"ni va "bugunining achchiq kechinmalari"ni ifodalaydi:

*Osmon o'ldi*

*Va quyoshni yerga haydadilar*

*Zulmat*

*Yulduzlar yaylovida*

*Chodir yoygan*

آسمان مرده است

و خورشید را به زمین تبعید کرده اند

تاریکی

در چراگاه ستاره گان

خیمه برافراشته است<sup>44</sup>

Partav Nodiriyning umidsizlik ruhida yozilgan ushbu she'rda "osmon o'ldi" deb vatani Afg'onistonning kelajagi barbod bo'lganini, mamlakatdagi hayot butunlay izmidan chiqqanini ta'riflaydi.

Shoir she'rlarida yorug'lik va zulmat obrazi bilan bir qatorda quyosh va tun obrazlari ham keng qo'llaniladi. "Quyosh" o'z ma'nosida olamga, insoniyatga yorug'lik, iliqlik, issiqlik beradi. U tiriklik manbaidir. Ko'chma ma'noda "quyosh" xursandchilik, insoniyatga mehr ulashish, totuvlikdagi shirin hayot ramzidir. Shoir she'ridagi "quyoshning yerga haydalihi" misralari afg'on xalqidan shunday shodlik va tinchlik zamonlariga raxna solinganini tasvirlagan.

Asl ma'nosida zim-ziyo, tim qorong'ilik ma'nosini anglatuvchi "zulmat" so'zi ramziy ma'noda nodonlik, qoloqlik, jaholat va iztirobli kunlarni ifodalagan. "Yulduz"ni esa o'z ma'nosi<sup>45</sup> dan tashqari ramziy ma'noda "mashhur bo'lib tanilgan, shuhrat qozongan shaxs" sifatida ta'riflash mumkin. Shoir she'rda osmon jismlari obrazini shu qadar mohirlik bilan qo'llaganki, bundan mamlakat (Afg'oniston) ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti izdan chiqib, notinchlik zamonlari boshlanishi ortidan osoyishtalikdagi mehr va xursandchilikka to'la hayot manbai nihoyasiga yetganini, mamlakatdagi ziyolilar, jamiyat faollari qatag'on qilinib, yurtda qoloqlik, savodsizlik va beqarorlik zamonlari kezzanini anglash mumkin.

Shuningdek, shoirning "dehkode' bi bamdad" ("Tongsiz qishloq") nomli to'plamidagi she'rlar "mujohidlar hukmronligi yillarida Kobul shahrida porox hidi bilan nafas olib, qahraton qishlarini raketa olovi bilan isitib"<sup>46</sup> yurgan kezlarida yozilgan. Shoirning o'zi bu she'rlar jamlanmasi haqida "... men tongsiz yerdan kelyapman, boshqacha

<sup>44</sup> پرتو نادری. دهکده بی بامداد. - کابل، ۱۳۸۹. - ص. ۱۴.

<sup>45</sup> "Yulduz" - qizigan gaz (plazma)lardan tarkib topgan, tabiatiga ko'ra quyoshga o'xshaydigan, kechasi nur sochuvchi nuqta bo'lib ko'rinadigan osmon jismi. Мадвалиев А. в.б. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - Б. 81.

<sup>46</sup> پرتو نادری. دهکده بی بامداد. - کابل، ۱۳۸۹. - ص. ۴.

aytganda besh ming yil o'tib, quyosh zulmatda g'imirlab yuradigan yurtga yetib kelganman!"<sup>47</sup> – deya izohlaydi.

*Kulgimning ovozi esa g'am titrog'ida  
yo'qoladi*

*O'zidan ozod*

*Bo'g'zimdagi bor telba shamollar bilan*

*Kulaman*

*Kulaman*

*Kulaman*

و صدای خنده هایم در طنین اندوه من گم می  
شوند

رها شده از خویش

با گلوی تمام باد های دیوانه

می خندم

می خندم

می خندم<sup>48</sup>

Ushbu parcha o'quvchida chuqur ziddiyat va paradoks hissini uyg'otadi. Shoirning kulgisi shodlikdan emas, dardni yashirishga urinish, hatto telbalikdek tuyuladi. Qayg'uning haqiqiy shodlikka o'rin qoldirmaydigan darajadagi nihoyatda kuchli g'ami tufayli o'zini ham o'zgani ham aldaydi va dardlarga qarshi turish uchun ham zo'r berib kulishga urinadi.

## XULOSA

Hozirgi zamon dariy adabiyotida "yangi she'r" genezisi va shakllanish jarayonlari (Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she'riyati misolida) bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosaga kelindi:

1. Afg'oniston dariyzabon adabiyoti tarixida "yangi she'r"ning paydo bo'lishi va rivojlanishini aniqlash muhim bosqich hisoblanadi. Bu masalada Eron "yangi she'r"i asosiy o'rinda turadi va bu she'riyat bo'yicha yozilgan asarlar ancha chuqurligi, keng qamrovligi, nazariy jihatlar bilan ajralib turadi. Eron "yangi she'r"i xususida rus olimlarining fikrlari ham shoirlar ijodini, she'rlarning mazmun doirasi, shaklini o'rganishda qisman yoritib berilgan.

2. Afg'onistonning o'zida "she'r-e nav" masalasiga yondashuv eron she'riyati asosiga qurilgani bois unga berilgan baholar bir-biriga o'xshashligi ko'rindi. Ammo dariy adabiyotshunosligida hozirgacha olib borilgan tadqiqotlar eron she'riyatchilik keng ko'lamda – "she'r-e nav"ning mazmun, shakl, qofiya, ritm, badiiy-stilistik jihatlarini o'z ichiga olgan, uning nazariyasini yaratishdagi chuqur tahliliy, adabiy-tanqidiy asarlar hali mavjud emas.

3. Afg'oniston dariyzabon adabiyotida "yangi she'r" namunalari XX asrning boshlarida "ma'rifatparvarlik adabiyoti" negizida paydo bo'ldi. Bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar adabiyotga va adiblar dunyoqarashiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, mumtoz shakl va mazmunga yangicha ifoda usullarini, yangi qoliplarni kirgizish ehtiyojini uyg'otdi. "She'r-e nav"ning paydo bo'lishi aynan shu ehtiyojning natijasi o'laroq, dariyzabon adabiyotning keyingi bosqichlari rivojlanishida sezilarli ta'sir ko'rsatdi, yangi poetik mavzular, imkoniyatlar, yangicha tasvir usullari, hamda yangicha qoliplar dunyoga kelishiga sabab bo'ldi.

4. An'anaviy dariy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanish hodisasi o'zining qat'iy vazn va qofiya tizimiga ega bo'lgan mumtoz she'riyat qoidalarini parchalab, "yangi she'r"ning an'anaviy qoidalardan chekinishi, vazn hamda

<sup>47</sup> پرتو نادری. دهکده بی بامداد. – کابل، ۱۳۸۹. ص. ۳.  
<sup>48</sup> پرتو نادری. دهکده بی بامداد. – کابل، ۱۳۸۹. ص. ۷۶.

qofiyalardagi erkinlik, she'r satrlarining nomutanosib uzun-qisqaligi kabi xususiyatlar shoirlarga o'z fikrini yanada erkin va bevosita ifodalashga imkon berdi.

5. XX asrning 70-yillaridan e'tiboran Afg'onistonda sodir bo'lgan chuqur ijtimoiy-siyosiy bo'hronlar "she'r-e nav"ning mavqeyi yanada kengayishiga va mustahkamlanishiga olib keldi. Shoirlar ijodida, shu jumladan, Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she'riyatida kunning o'ta dolzarb muammolari "yangi she'r"ning imkoniyatlariga mos kelishi sababli mamlakat hayotidagi ijtimoiy, ma'rifiy va siyosiy masalalar, tinchliksevarlik ruhidagi mavzular ko'tarib chiqildi. Shuningdek, sho'rolar bosqini natijasida vujudga kelgan "muqovimat adabiyoti"ning sara asarlari ayni "she'r-e nav" uslubida bitildi.

6. Afg'oniston dariyazabon adabiyoti yirik vakillaridan Boriq Shafeiy ijodini yangi she'riyat muammolari kesimida o'rganish shuni ko'rsatdiki, shoir ijodida mumtoz she'riyat shakllariga murojaat qilishda shaklan an'anaviylik bo'lsa-da, mazmunan yangilangan. Bu shoirning "yangi she'r" turlariga qiziqishi va shu bilan birga an'anaviy qoliplarga sodiqligi ifodasidir. Shoirning an'anaviy shakldagi she'rlarining boy tili, "karvon", "qo'ng'iroq", "parvona", "shu'la", "tabib", "bemor" kabi yangi mazmundagi majoziy obrazlar tizimiga egaligi va jamiyatning og'riqli va dolzarb mavzularni ko'tarib chiqqanligi alohida ahamiyatga ega.

7. Boriq Shafeiy she'riyatida "yangi she'r"ning qo'llanilishi shoirning yangi ifoda usullariga intilishi va zamonaviy adabiyot tendensiyalarga hamohang bo'lish istagini aks ettiradi. Shoir nimoyi, oq she'r, erkin she'r kabi erkin vaznlardagi manzumalarida yangi fikrlarni ta'sirchan ifodalash uchun "she'r-e nav"ga xos bo'lgan misralarning uzun-qisqaligi, ritmikasi, ramziy ifodalardan o'rinli foydalanish, an'anaviy qofiya me'yorlariga bo'ysunmaslik kabi xususiyatlarini qo'llagan.

8. XX asrning 70-yillaridan kirib kelgan Partav Nodiriy ijodida an'anaviy she'r shakllari mavjud bo'lsa-da, uning salmoqli qismini "she'r-e nav"da yozilgan she'rlari egallashi bilan ahamiyatlidir. Uning ijodida nimoyi she'rlarning aruz vaznida qo'llanilishi adabiy vorislikni saqlab qolgan holda mazmunda jamiyat og'riqlari, orzu-umidlarini va murakkab fikriy siljishlarni izhor qilishda, yangi mazmunga mutanosib "yangi she'r" qoliplarini izlash imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

9. Partav Nodiriy ijodi yangi she'riyatida shakl va mazmun jihatdan an'anaviy poetikadan farqlanib, shoirning individual uslubini belgilab beradi. Asosan erkin she'r yozishda mashhur bo'lgan shoir she'rlarida erkin vazn, qofiyaning nomuntazam qo'llanishi yoki qo'llanilmasligi, satr va bandlarning turlicha miqdori, turoqlar notengligi, she'rdan ko'zlangan maqsadni urg'u va takrorlar orqali ifodalash kabi xususiyatlarga egaligi bilan o'z uslubini kashf qildi. Uning she'riyatida ijtimoiy-siyosiy mavzularni, xalq hayotiga oid og'riqli nuqtalarni majoziy obrazlarda ifodalashi keng ma'no kasb etadi. Bu xususiyatlar shoirning o'ziga xos individual uslubini shakllantirishga xizmat qilgan.

10. Partav Nodiriyning "yangi she'r" uslubidagi she'rlarida ramzlarning faol qo'llanilishi "yangi she'r"ning o'ziga xos tili bo'lib, she'rlarda ma'no doirasini kengayishiga va ularga chuqur falsafiy-estetik mushohada bag'ishlashga sabab bo'lgan. Shoir she'rlarida ramzlardan mahorat bilan foydalanar ekan, ularda zamonaviy mazmunni ifodalaydi. Ramzlarning ko'p ma'noliligi, chuqur va ta'sirchan

ma'noni o'zida jamlashi orqali shoir o'quvchini mushohada qilishga, she'rlardagi yashirin ma'nolarni ilg'ab, osoyishtalik, vatan tinchligi, ma'rifatparvarlik kabi turli chorlovlarga da'vat qilgan.

11. Hozirgi dariyzabon adabiyoti taraqqiyotida "yangi she'r"ning o'z o'zanini topishida, shakl, vazn, ritm, qofiya, uslub masalalari, mazmun, ramzlar va obrazlar tizimining me'yorlashuvida, hamda dariy she'riyatida yangi davrni boshlab berishda Boriq Shafeiy va Partav Nodiriylarning ijodi alohida ahamiyat kasb etgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
DSc.03/30.12.2019.FIL.21.01 AT TASHKENT  
STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES**

---

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES**

**NAZAROVA AFZUNA RAHIMOVNA**

**THE GENESIS AND FORMATION PROCESSES OF “NEW POETRY”  
IN CONTEMPORARY DARI LITERATURE  
(Using the poetry of Bareq Shafie and Partaw Naderi as an example)**

**10.00.05 – National languages and literature of Asia and Africa**

**ABSTRACT**  
**of dissertation for the degree of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences**

**Tashkent – 2025**

**The theme of dissertation of the Doctor of philosophy (PhD) was registered at the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan with number No.B2023.2.PhD/Phil3423.**

The dissertation has been prepared at the Tashkent State University of Oriental Studies.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website of the Scientific Council ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) and on the information and educational portal “ZiyoNet” ([www.ziynet.net](http://www.ziynet.net)).

**Scientific supervisor:** **Mannonov Abdurahim Mutalovich**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Official opponents:** **Xodjaeva Rano Umarovna**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Shoaliyeva Nargiza Kakhramanovna**  
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

**Leading organization:** **Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will be held on “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 at \_\_\_\_\_ at the session of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 at the Tashkent State University of Oriental Studies. (Address: 100060, Tashkent, Amir Temur Street, 20. Uzbekistan. Tel: (99871) 233-45-21. e-mail: [info@tsuos.uz](mailto:info@tsuos.uz))

The dissertation is available at the Information Resource Centre of the Tashkent State University of Oriental Studies (registered under № \_\_\_\_). (The address: 100060, Tashkent, Amir Temur Street, 20. Uzbekistan. Tel: (99871) 233-45-21.)

Abstract of dissertation sent out on “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025.

(Protocol at the register № \_\_\_\_ of “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025).

**Q.Sh.Omonov**

Acting Chairman of the Scientific Council  
for awarding scientific degrees, Doctor of  
Philology, Professor

**N.R.Ismatullayeva**

Scientific Secretary of the Scientific Council  
for awarding scientific degrees, PhD,  
Associate Professor

**B. Tukhliev**

Chairman of the Scientific Seminar at the  
Scientific Council for the awarding of  
scientific degrees, Doctor of Philology  
sciences, Professor

## INTRODUCTION (Dissertation for the Doctor of Philosophy (PhD) Degree)

**Relevance and Necessity of the Dissertation Topic.** The study of contemporary trends, genres, and artistic issues in Eastern poetry constitutes a pressing topic within global literary criticism. In the field of literary scholarship, the recognition of traditional forms, content, means of artistic representation, and the question of modernity, alongside established literary norms, holds significant importance within the context of specific historical periods and geographical locations. This is because adherence to generally accepted literary norms is crucial for elucidating the essence of tradition and modernity in poetry, as well as for the analysis and evaluation of literary works.

In world literature, traditionality is a concept that expresses phenomena passed down from century to century, from generation to generation. A literary tradition, once it emerges, is initially considered a novelty. Over time, its repetition and frequent use, as well as cultural necessity and social phenomena, transform it into a need. In other words, no tradition in art and literature existed from the outset. Conversely, in the past, every tradition was a unique novelty, and no novelty remains eternal. Adopting any modernist perspectives initially requires understanding the norms and demands of traditional elements. This is achieved by critically examining tradition and acknowledging its components. Thus, evolution in art and literature is a product of the clash between traditions and innovations.

At the current stage of our country's development, cultural relations with neighboring states, particularly Afghanistan, are rapidly progressing. These ties specifically serve to deepen mutual experience exchange and understanding in the fields of literature and poetry. The emergence of new poetry in Afghan Dari literature from the first quarter of the 20th century presents significant research questions regarding tradition and modernity. These pressing tasks for current literary scholarship include investigating how classical forms yielded to new poetic structures, meters, and artistic styles, and analyzing "new poetry's" rise as a dominant movement within the country's literature, along with examining its leading representatives from the perspective of modern poetics, literary criticism, and artistic-stylistic requirements to draw informed conclusions.

This research also contributes to the implementation of tasks outlined in various regulatory legal documents, including the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-5847 dated October 8, 2019, "On Approving the Concept of Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030"; the Resolution No. PR-4680 dated April 16, 2020, "On Measures for Radically Improving the System of Training Personnel in Oriental Studies and Increasing Scientific Potential"; the Resolution No. PR-5117 dated May 19, 2021, "On Measures for Taking the Activity of Popularizing Foreign Language Learning in the Republic of Uzbekistan to a Qualitatively New Level"; and the Decree No. PD-60 dated January 28, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026."

**Alignment of the Research with Priority Areas for the Development of Science and Technology in the Republic.** This scientific research project has been conducted in accordance with Priority Area I: “Formation of a system of innovative ideas and ways for their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and democratic state” within the framework of the Republic of Uzbekistan's priorities for the development of science and technology.

**Degree of Study of the Topic.** In Afghan literary scholarship, “she’re naw” entered through Iranian literature, and this style and literary movement has attracted the attention of Orientalist scholars. Numerous scientific and theoretical studies exist in Persian on this topic, examining “she’re naw” from various aspects, such as its history, content, expression of artistic means of representation, and socio-political influences on poetry. Specifically, the works of scholars in Iran such as Akhavan Sales, Abdolali Dastgheyb, Parviz Natel Khanlari, Abdolhossein Zarrinkoub, Esmail Nouriala, Hamid Zarrinkoub, Shams Langroudi, Mohammad Hoqouqi, Mansour Rastagar Fasayi, Muhammad Reza Shafie Kadkani, and Kavous Hasanli<sup>1</sup> have analyzed and researched the emergence, developmental characteristics, and the place of “new poetry,” founded by Nima Yooshij and his followers, within the creative works of poets.

Scholarly research on the unique aspects of the emergence and development of “new poetry” in modern Persian poetry, among other topics, has been conducted by several prominent academics. These include former Soviet scholars like R. Aliev, V. Klyashtorina, J. Badiiy, and M. Nikolaevskaya<sup>2</sup>; contemporary scholars conducting research in Russia such as M. Kyazimov, N. Djum’amurodiy, and N. Khodjayorov<sup>3</sup>; and Uzbek scholars including Sh. Shomuhamedov, N. Shoaliyeva, S. Yuldasheva, and S. Sotiboldiyeva<sup>4</sup>.

In contemporary Dari-speaking literature, there are also studies related to “she’re naw” within Afghanistan itself. The first information regarding its history,

---

<sup>1</sup> اخوان ثالث. نوعی وزن در شعر امروز فارسی // پیام نوین، ش. ۷. - تهران، ماهانه، ۱۳۴۲. - ص. ۴۶-۶۲؛ دستغیب عبد العلی. تحلیلی از شعر نو فارسی. - تهران، ۱۳۴۵. - ۱۳۰ ص؛ خانلری پرویز ناطل. شعر و هنر. - تهران، ۱۳۴۵. - ۳۷۲ ص؛ زرینکوب عبد الحسین. شعر بی نقاب، شعر بی دروغ. - تهران، ۱۹۶۷ م. - ۲۹۱ ص؛ نوری علا اسماعیل. صور اسباب در شعر امروز ایران. - تهران، ۱۳۴۸. - ۵۸۱ ص؛ زرینکوب حمید. چشم انداز شعر نو فارسی. - تهران، ۱۳۵۸. - ۲۷۸ ص؛ خانلری پرویز ناطل. وزن شعر فارسی. - تهران، ۱۳۶۶. - ۳۰۳ ص؛ نوری علا اسماعیل. تئوریه شعر. از موج نو تا شعر عشق. - لندن، ۱۳۷۳. - ۳۱۵ ص؛ لنگرودی شمس. تاریخ تحلیلی شعر نو. چهار جلد. - تهران، ۱۳۷۷؛ محمد حقوقی. مروری بر تاریخ ادب و ادبیات امروز ایران. جلد ۲. - تهران، ۱۳۷۷. - ۶۲۰ ص؛ فسلی منصور رستگار. انواع شعر فارسی. - تهران، ۱۳۸۰. - ۶۹۶ ص؛ محمدرضا شفیعی کدکنی. با چراغ و آینه. - تهران، ۱۳۹۲. - ۷۶۱ ص؛ حسنلی کاووس. گونه های نوآوری در شعر معاصر ایران. - تهران، ۱۳۹۸. - ۴۹۶ ص.

<sup>2</sup> Кляшторина В.Б. Современная персидская поэзия. - Москва: Наука, 1962. - 148 с.; Алиев Р.М. О новаторстве в современной персидской поэзии (ритмические основы стиха) // Доклады делегации СССР на XXVI Международном конгрессе востоковедов. - Москва, 1963. - 3-15 с.; Баде Ж. Нима Юшидж - отец новой поэзии Ирана // Проблемы теории литературы и эстетики в странах Востока. - Москва, 1964. - С. 319-339.; Кляшторина В.Б. “Новая поэзия” в Иране. - Москва: Наука, 1975. - 256 с.; Николаевская М.Ю. Станавление “новой поэзии” в Иране (20-70-е годы): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Москва, 1989. - 18 с.

<sup>3</sup> Кязимов М.Д. Персидская поэзия конца XX века. - Баку, 2005. - 336 с.; Ходжаеров Н.Ф. Метрика поэзии Нима Юшиджа: дисс. ...канд. филол. наук. - Душанбе, 2000. - 190 с.; Джум’амуроди Н.А. Влияние Европейской литература на Иранскую поэзию XX века на примере творчества Нима Юшиджа (1920-1950гг): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Душанбе, 2021 - 24 с.;

<sup>4</sup> Шомухамедов Ш. Форс шеъриятининг асосий шакллари. - Тошкент, 2001. - 78 б.; Шоалиева Н.К. Сухроб Сипехрий ижодида инсоний ва ирфоний ғояларнинг бадиий талқини: Филол. фан. номз...дисс. - Тошкент, 2008. - 153 б.; Юлдашева С.Т., Сотiboldiyeva С.Р. Эрон адабиёти (XVI-XX асрнинг 50-йиллари). - Тошкент, 2009. - 156 б.; Рузбех М. Ҳозирги замон Эрон адабиёти. - Тошкент: Янги нашр, 2012. - 298 б.

stages of development, and poets who created in “new poetry” was provided in Muhammad Haydar Jobal’s work<sup>5</sup>. Subsequently, scholars such as Muhammad Usmon Sidqiy, Asadullo Habib, Shujoyiddin Khurosoniy, Abdulqayum Qavim, Muhammad Is’haq Foyiz, and Partaw Naderi also addressed this topic in their works<sup>6</sup>. Regarding “she’re naw” in Afghanistan, scholars abroad like Sharif Husayn Qasimiy, Shah Akbar Shahrisoniy, Shuayb A’zamiy, Abdulmajid Arjumandiy, Muhammad Osif Gulzod, and Latif Nozimiy<sup>7</sup> have attempted to study “she’re naw” in their articles. Furthermore, a number of insights related to “she’re naw” in contemporary Dari-speaking literature have been presented in the scientific research of Tajik scholars S. Mirzoyev, S. Saidov, H. Asozoda, N. Behruz, S. Djannatmir<sup>8</sup>, the Turkish scholar I. Soylemez<sup>9</sup>, and Uzbek scholars A. Mannonov and R. Inomxojayev<sup>10</sup>.

In addition, collections of modern Dari poems have been compiled by scholars such as Muhammad Surur Mavloyi, Mahmud Faroniy, Asadullo Habib, Chingiz Pahlavon, and Gulom Muhammad La’lzod<sup>11</sup>. The introductory sections of these collections briefly discuss “she’re naw” and feature poems by various poets.

